

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.M.Normatov	
O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida	229
Sh.T.Tursunkulova	
G'azzoliyning go'zal axloq to'g'risidagi qarashlari	235
I.M.Azimov	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar	239
Sh.D.Ismoilov	
Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakl va metodlari	247
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik "Katta ashula" sohiblari	251
M.Kamalitdinov, T.Mavlanov	
Sharsimon qobiq dinamikasi qisman suyuqlik bilan to'ldirish	257
A.I.Saminov	
Oksyumoronning semantik xususiyatlari	261
I.X.Mavlonov	
Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari	266
B.X.Baydjanov, Z.I.Muhammadiyeva	
O'quvchilarda mantiqiy kompetentlikni shakllantirish usullari	272
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	276
Z.M.Abdullaev	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi	280
G'.Z.Abduraxmonov	
Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	284
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	288
Sh.Ismoilov	
Nogironlik tushunchasining modellari	293
D.O.G'afurov	
Yangi O'zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda uning jamiyat ma'naviy rivojida tutgan o'rni	300
D.B.Niyazov, M.M.Niyazova, Sh.M.Saydaxmedov, B.Z.Adizov, M.Y.Ismoilov	
Nitron tolasi chiqindisi asosida F-seriyali flokulyantlarni olish	303
D.S.Ergasheva	
O'zbek xalq ertaklari orqali vatansevarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini ta'nishlash	308
G.M.Ravshanova	
Axborotlashgan jamiyatda ta'lim va ta'lim axborotlashuvining dialektik aloqadorligi muammosini o'rganish	313
O.O'.Xolmatova	
O'zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari	320
F.A.Tashpulatov	
O'quvchi yoshlarni basketbolga o'rgatish texnikasining usullari	324
S.G'.Shomurodova	
Nikoh urf-odatlar bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini	329
F.N.Usmonov	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari	334
E.Sh.Jumayeva, U.U.Ruzmetov, Z.A.Smanova	
Suvdagi og'ir metallarni aniqlash usullari va og'ir metallarning organizm hayotiy faoliyatiga zaharli ta'siri	340
S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev	
<i>Allium karataviense</i> o'simligi takibidagi flavonoidlar taxlili	349

MARG'ILONLIK "KATTA ASHULA" SOHIBLARI
ВЛАДЕЛЬЦЫ "КАТТА АШУЛА" ИЗ МАРГИЛОНИ
OWNERS OF "KATTA ASHULA" FROM MARGILONI

Qambarov Abdumutal Axadjonovich¹

¹**Qambarov Abdumutal Axadjonovich**

– Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrası
professori v.b. falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Xalqimiz sevib tinglagan, asrlar osha ardoqlab saqlab kelinaayotgan ashula usullaridan biri – "Katta ashula" bo'lib, u o'z ohangi, salobati bilan boshqa usullardan ajralib turadi. Mana shu sababdan bo'lsa kerak, u hozirgacha o'zining salobatini yo'qotmay kelyapdi. Mazkur maqolada "Katta ashula" yo'nalishida ijod qilgan marg'ilonlik katta ashula sohiblari bo'lgan Boltaboy Rajabov, Mamatbobo Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqovlar haqida ma'lumot beriladi.

Аннотация

Одним из способов пения, который любят слушать наш народ и который сохранился в веках, является «Катта ашула», который отличается от других способов своей мелодичностью и качеством. Вероятно, по этой причине он не утратил своей силы до сих пор. В данной статье представлена информация о направлении «Катта ашула» и о больших маргилонских певцах Болтабове Раджабове, Маматбобо Саторове, Джорахане Султанове, Мамуржоне Узокове.

Abstract

One of the ways of singing, which our people like to listen to and which has been preserved for centuries, is "Katta ashula", which differs from other ways in its melody and quality. Probably for this reason, he has not lost his strength until now. This article provides information about the Katta Ashula direction and about the great Margilon singers Boltaboi Radjabov, Mamatbobo Satorov, Dzhorakhan Sultanov, Mamurjon Uzokov.

Kalit so'zlar: ashula, katta ashula, musiqa, milliy musiqa, musiqiy meros, an'anaviy qo'shiqchilik, san'at, Zebo pari, jo'rovoz, ustoz-shogirdlik an'analari.

Ключевые слова: пение, большое пение, музыка, национальная музыка, музыкальное наследие, традиционное пение, искусство, зебо пари, йоровоз, традиция наставника-ученичества.

Key words: singing, great singing, music, national music, musical heritage, traditional singing, art, zebo pari, yorovoz, mentor-apprenticeship tradition.

KIRISH

O'zbek xalqining og'zaki an'anada rivojlanib kelgan musiqiy merosi shaklan va mazmunan badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. U o'zining uzoq va shonli tarixiga ega. Mana shu uzoq vaqt mobaynida o'zbek musiqa san'ati taraqqiyotida yuksalishlar ham, pasayishlar ham sodir bo'ldi. Lekin, bu jarayonda Farg'ona vodiysidan, jumladan, Marg'ilon shahridan yetishib chiqqan san'at darg'alari o'z ijodlari bilan xalq musiqa san'ati durdonasi bo'lgan "Katta ashula" yo'nalishining yo'qolib ketishining oldini olishda juda katta hissa qo'shdilar.

Yusufjon qiziq Shakarjonov, Madali hofiz, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Gavharxonim, Lizaxonim, Nurxon Yo'ldoshxo'jayeva, Boltaboy Rajabov, Mamatbobo Sattorov, Akbar Xaydarov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Mukarrama Turg'unboyeva, Boborahim Mirzayev, Saodat Qobulova, Berta Davidovalar kabi san'at darg'alari shu yerda kamolga yetishib, ular o'zbek xalq an'anaviy ijrochilik san'atining rivojlanishiga asos solganlar. Ana shunday san'at turlaridan biri – katta ashuladir.

Katta ashula – Farg'ona vodiysiga xos yirik ashula yo'li, mustaqil janri, o'ziga xos ijro uslubi va usuli ega bo'lgan, xalqimiz sevib tinglagan, asrlar osha ardoqlab, saqlab kelinayotgan san'atdir. U o'ziga xos ohangi, salobati bilan boshqa musiqiy janrlardan ajralib turadi.

Katta ashula Farg'ona vodiysida qadimdan sevib ijro etiladi. Bugungi kunda katta ashula aytuvchilar kamayib ketgan bo'lsa-da, uni katta mahorat bilan aytgan ustozlarni xalqimiz hamon ardoqlab keladi. Chunki, katta ashula yo'nalishi musiqa san'atida o'z qadrini hamon saqlab kelmoqda.

Bugun biz ana shunday ulkan ma'naviy boylikning shakllanishi va taraqqiyotida, bu umrboqiy san'atning bizgacha yetib kelishida beqiyos xizmat ko'rsatgan ulug' shoir va

mutafakkirlar, bastakor va sozandalar, buyuk hofizlarning xotirasini hurmat-ehtirom bilan yod etamiz[1,102]. Demak, bugungi kunda musiqa san'atimizning durdonasi bo'lgan "Katta ashula"ni madaniy meros sifatida avloddan avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida mamlakatning barcha sohalarida tub o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Ushbu o'zgarishlar o'zbek xalqining bir necha ming yillik orzuniyatlarini ro'yobga chiqishida va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishida katta ahamiyat kasb etdi. Bu esa, ota-bobolarimiz tomonidan ko'p yillar mobaynida yaratilgan ulkan, bebaho madaniy merosimizni, qadim tariximizni, milliy urf-odat va marosimlarimizni qayta tiklash, o'zlikni anglash singari masalalarni har tomonlama, chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Shulardan biri o'zbek milliy musiqa san'atining durdonasi bo'lgan "Katta ashula" yo'nalishidir.

"Katta ashula" o'rta asrlarda marosim va mehnat qo'shiq-aytimlari negizida, mumtoz she'riyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz g'azallarni an'anaviy o'qish asosida yuzaga kelib rivojlandi. Uning o'tmishdagi namunalarida ishqiy-lirik g'azallar bilan bir qatorda, didaktik (nasihat), tasavvuf ruhidagi she'rlar ham kuylangan. Keyinchalik esa Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlar she'rlari bilan aytila boshlangan. "Katta ashula" yo'nalishi XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida bu muqaddas san'atning ijrochi avlodi yetishib chiqqan boshladi[2,23]. Madali hofiz, Mulla To'ychi Toshmuhammedov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir.

Farg'ona-Toshkent ijrochiligida o'ziga xos ijro maktabiga ega bo'lgan "Katta ashula" ijrosidir.[3,13]. "Katta ashula" baland pardalarda ijro etilishi, katta avjlar mavjudligi, so'zlarning tinglovchilarga ravon yetib borishi va ta'sirchanligi katta ashulaga xos bo'lib, uning "Yovvoyi maqom" (Yovvoyi Ushshoq, Yovvoyi Chorgoh), "Yovvoyi ashula" (Yovvoyi tanovar, Yovvoyi munojot), "Yakkaxonlik" (Oh kim, Gul'uzorim qani, Topmadim) kabi janrlari borligidan darak beradi. "Katta ashula" qadimiy marosim va mehnat qo'shiqlari, marsiya hamda aruz vaznidagi g'azallarining qadimiy o'qilish uslublari ("g'azalxonlik") zaminida vujudga kelgan. Uning o'tmishdagi namunalarida lirik va nasihatamuz g'azallar bilan bir qatorda diniy, tassavvuf va zamonaviy yo'nalishdagi she'rlar ham kuylanadi.

NATIJALAR

Xalqimiz sevib tinglagan, asrlar osha ardoqlab saqlab kelinaayotgan ashula usullaridan biri – "Katta ashula" bo'lib, u o'z ohangi, salobati bilan boshqa usullardan ajralib turadi. Mana shu sababdan bo'lsa kerak, u hozirgacha o'zining salobatini yo'qotmay kelyapdi[4,3]. Hozirgi kunga qadar "Katta ashula" janrining qayerda va qachon kelib chiqqani haqida aniq dalillar topilgan emas. Mutaxassislar va xonandalarning turli manbalardagi "Katta ashula" haqidagi fikrlari musiqashunos olim Rustam Abdullayevning "Katta ashula janri va ijrochilari" deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida keltirilgan. O'zbek musiqasi tadqiqotchilari va katta ashula ijrochilari bu janrning barcha sifatlarini hisobga olgan holda, ya'ni musiqiy yo'lning uzunligi, she'riy matnning ma'nodorligi va boshqa hislatlari uning nomlanishiga mos ekanligini ta'kidlaydilar.

"Katta ashula"larning kelib chiqish tarixini mutaxassislar turlicha tahmin qiladilar. Manbalarning birida: "Katta ashula"larning she'rlari faqat aruz vaznidadir. Shuning uchun bu janrning kelib chiqishi arablar istilosidan keyingi davrga to'g'ri keladi. Chunki, aruz vazni bizga arablardan kirib kelgan. Undan oldin faqat barmoq vaznidagi she'rlar bo'lganligini e'tirof etishadi.

MUHOKAMA

XX asrning 20-30-yillariga kelib an'anaviy qo'shiqchilik san'atiga ikkinchi bir avlod kirib keldiki, bu ulug' hofizlarimiz san'atimiz xazinasini o'zlarining mumtoz qo'shiqlari bilan boyitdilar. Jumladan, Marg'ilonlik – Boltaboy Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov kabi hofizlar o'zlaridan oldin ijro qilib o'tgan ustozlarning qo'shiqchilik san'atini davom ettirishib, an'anaviy ijrochilikda har birlari bir-biriga o'xshamagan ajoyib ijro uslublarni yaratganlar. Mazkur maqolada ana shunday san'at darg'alari haqida fikr yuritamiz.

Katta ashula sohiblaridan biri – O'zbekiston xalq hofizi Boltaboy Rajabov bo'lib, (1878-1960) u Marg'ilon shahriga qarashli bo'lgan "Shakar qishloq" mahallasida o'rta hol dehqon oilasida dunyoga keldi.

Boltaboyning san'at yo'nalishidagi intilishlari XX asrning 20 yillaridan keyin ro'yobga chiqqan boshladi. U dastlab Marg'iondagi choyxonalarga tashrif buyurib, el o'rtasida qo'shiq aytib,

hammani xushnud qilardi. O'sha davrda choyxonalar madaniyat, ma'rifat markazlari vazifasini bajargan. Shuningdek, Boltaboy hofiz Hamroqul qori, Abdurahmon qori kabi ustoz ashulachilar san'atidan bahra olib, u o'zining mahoratini oshirib bordi. Mumtoz she'riyat seyrini, ma'nosini qo'shiq yo'llari bilan xalqqa yetkazib berishda katta mehnat sarfladi[5].

XX asrning 20-30-yillarida hofiz Boltaboy Rajabovning ovozi vodiyyagina emas, balki Respublika hududi bo'ylab yoyildi. Katta Farg'ona kanali qurilishi esa Boltaboy hofizga shon-shuhrat olib keldi. "Ey, sanam", "Suv keldi", "Sahar chamanda" (Mashrab, Oraziy, Amiriy g'azallari) ashulalarini aytib, kishilarni mehnatga ilhomlantirdi.

Boltaboy Rajabov o'zidan yorqin iz qoldirgan san'atkordir. O'zbekiston radiosi 1950-yillarning o'rtalarida kelib, Boltaboy Rajabovdan "Ey, sanam", "Sahar chamanda", "Oh kim", "Bo'ston", "Bu gulshan", "Judo qilma", "Shoyad" (Mashrab, Amiriy, Furqat, Xaziniy, Habibiyy g'azallari) kabi qo'shiqlarni magnit lentalariga yozib olgan.

O'z ijodi bilan xalq musiqa merosining yo'qolib ketishini oldini olishga munosib hissa qo'shgan "Katta ashula" ijrochilaridan biri Mamadbobo Sattorov (1885-1969) Marg'ilon shahrida tavallud topgan yetuk xalq xofizlaridan biridir.

Mamadbobo Sattorov o'n to'rt yoshidan Marg'ilon atrofidagi yig'inlarda o'z ashulalari bilan qatnasha boshlaydi. Shu yillarda u "Jamshid", "Xunob", "Terma" qo'shiqlarini aytib yuradi[6,45].

Mamadbobo Sattorov 1900-yillardan boshlab Farg'ona vodiysida tanila boshlaydi. Madumar hofiz, Hamraql qori, Madalibek, To'ychi hofiz singari san'atkorlar bilan birga ko'rgazmalarda, sayillarda, har turli yig'inlarda qatnasha boshlaydi. Uning ijodiy kamolotga erishuvida mashhur otashzabon shoir Ziyovuddin Haziniy to'raning ta'siri katta bo'ladi. Qo'qondagi Kenagas qishlog'ida yashovchi hassos shoir bilan do'stona munosabat Mamadbobo repertuarining yanada kengayib, boyib borishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xaziniy to'raning o'zi ham sozanda bo'lib, tanbur chertib, ajoyib honish qilgan. "Chorgoh", "Ushshoq", "Munojat" singari ashulalarning patnisaki yo'llarini hofiz aynan ana shu Xaziniy to'radan o'rganadi[7,52].

Hofizning keyingi hayoti Toshkent shahri bilan bog'liq bo'lib, u yerning ko'zga ko'ringan hofizlari Mulla To'ychi Toshmehammedov, Shorahim, Shojalil, Mirsoat hofizlar bilan yaqindan tanishib, ijodiy muloqotda bo'ladi. Mamadboboning jarangdor, yoqimli ovozi, baland avjli qo'shiqlarni va patnisaki ashulalarni maromiga yetkazib aytganligi sababli, To'ychi hofiz o'sha davrda hofizni yosh Zebo Pari deb atagan edi. Zebo pari avji – Segoh maqomidan tashqari barcha maqomlarda ishlatiladi va mashhur avj sanaladi. Bu avjni Isfaralik mashhur hofiz Zebo Pari yaratgan bo'lib, maqom va an'anaviy qo'shiq ijrosiga yangilik sifatida kirib kelgan va mashhur bo'lib ketgan.

1913-yilning qish chillasida bo'lib o'tgan bir voqea Mamadbobo Sattorov shuhratining yanada oshishiga sabab bo'ladi: Qo'qondagi bir yig'inda Madumar hofiz, Hamraql qori, Mamadbobo Sattorovlar ashula aytishardi. Madumar hofiz "Segoh"ni aytganida namanganlik mehmonlar orsidagi o'rta bo'ylik, ko'k movut po'stinlik bir shinavanda o'rnidan turib, hofizlar orasiga keldi-da, qo'lini ko'ksiga qo'yib, hamma hofizlar bilan qo'l berib ko'rishadi-yu, "Segoh"ni aytgan Madumar hofizni quchoqlaydi va egnidagi yangi po'stinni yechib, unga kiydiradi. Navbat Mamadbobo Sattorovga yetganda, U Qori Pirimning "Kelibman dargohinga" deb boshlanadigan she'rini "Patnisagi Chorgoh" yo'lida o'qiydi. Madumar hofiz esa o'rnidan turib yosh hofizning yelkasiga qoqadi va haligi po'stinni Mamadbobo Sattorovga kiydiradi[6,46].

Mamadbobo Sattorov bir qator taniqli san'atkorlar bilan birga 1923-yilda Moskva shahrida bo'lib o'tgan Birinchi qishloq xo'jalik ko'rgazmasida O'zbekiston pavilyonida bo'lib o'tgan konsertda ishtirok etadi. Shuningdek, 1924 yilda Qo'qonning so'ngi xoni bo'lgan (xonlik 1876-yilda tugatilgan) Xudoyorxonning O'rdasida tashkil qilingan Turkiston qishloq xo'jalik ko'rgazmasida ko'pgina san'atkorlar qatori u ham o'z san'atini namoyish etadi. Keyinchalik Mamadbobo Sattorovni Muhiddin Qori-Yoqubov o'zi tashkil etgan o'zbek etnografik ansamblga ishg'a taklif qiladi. Shu yillar uning repertuarida Muqimiyning "Ko'p erdi hasratim jono", "Bir kelib ketsin", "Quling", "Aylading", Furqatning "Adashganman", Miskinning "E, dilbari jonim" kabi she'rlari bilan aytiladigan katta ashulalar bor edi.

Hofiz 1937 yili Moskva shahrida bo'lib o'tgan O'zbek san'ati o'n kunligida "Sayil va kolxoz to'yi" tomoshalarida ishtirok etadi. U Katta Farg'ona va Log'on kanali qurilishlarida mehnatkashlarni ruhini ko'tarish uchun o'zining seyrli ovozi bilan shoir Habibiyning "Kanalimga keling" she'rini,

shuningdek, Sobir Abdulla, Kamtar, Chustiy kabi shoirlarning suv va kanal haqidagi she'rlarini katta ashulaga solib aytadi.

Katta ashulaning yana bir vakili Jo'raxon Sultonov (1997-1965) Marg'ilon shahrining "Poshsho Iskandar" mahallasida tavallud topdi. Jo'raxon Sultonov keng diapazonli, kuchli, yumshoq xirildoq va dardli ovoz sohibi. Xonandalik saboqlarini ilk bor otasidan olgan, keyinchalik Madali hofizdan yalla yo'llarini, Boltaboy Rajabov, Mamatbuva Sattorovlardan katta ashula, Sodirxon hofiz, Mulla To'ychi hofizlardan maqom yo'llarini o'zlashtirgan. Dastlab xalqning to'y-sayillarida, choyxonalarda xizmat qilgan.

1918-yilning bahorida O'zbekiston shaharlarida bo'ylab, jumladan, Marg'ilonda tuzila boshlagan "Sanoyi nafis" deb nomlangan san'at tashkilotiga Yusufjon Qiziq Shakarjonov, Boltaboy Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Usta Olim Komilovlar qatori Jo'raxon Sultonov ham "Sanoyi nafis"ga a'zo bo'lib qo'shiladi.

1926-yilda Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi O'zbek davlat konsert-etnografik truppasida Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilovlar bilan birga Jo'raxon Sultonov ham Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Astraxan va Boku shaharlarida ijodiy safarda bo'lib, o'zining yoqimli qo'shiqlari bilan tinglovchilarni maftun etadi. Bu ijodiy safardan muvaffaqiyat qozonib qaytgan hofiz 1928-yilda Marg'ilon shahrida tashkil etilgan O'zbek musiqali drama teatriga direktor etib tayinlanadi. Musiqali drama teatrida ishlash jarayonida ko'plab shogirdlar tayyorlaydi. Ma'murjon Uzoqov, Boborahim Mirzayev, Zokirjon Ergashev singari yosh san'atkorlar shular jumlasidandir[3,105]. 1932-yilda Jo'raxon Sultonov Toshkentga ko'chib keladi va O'zbek Davlat musiqali teatrida ishlay boshlaydi.

1937-yilda Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek adabiyoti va san'ati o'n kunligida "Sayil va kolxoz to'yi" nomli umumiy dasturida "Ey nozanin", "Endi sendek", "Jonon", "Sinahiroj", "Abdurahmonbegi", "E go'zal Farg'ona", "Ul parivash" kabi katta ashula va yallalarni arg'umon etdi.

Katta Farg'ona kanali qurilishiga (1939-yilda) barcha xalq qatori san'atkorlarga ham safarbarlik e'lon qilindi. Respublikada dong taratgan mashhur san'atkorlar qatori Jo'raxon Sultonov ham qirq besh kun davomida kunduzlari, kechalari mash'allalar yorug'ida hukumat tomonidan tashkil qilingan konsertlarda o'zining xalqni mehnatga chorlovchi katta ashula va qo'shiqlari bilan ishtirok etadi. "Ey nozanin", "Bu gulshan", "Ofarin", singari katta ashulalar o'sha davrning mahsulidir. Shu yillarida hofiz qator qo'shiqlarni yaratib, ijro etadi. "Yovni yakson qilmasam", "Otga mindim" (Sobir Abdulla), "O'zbekistonimda" (Chustiy), "Ming qadam" (Habibiy), "O'lmasin" (Navoiy), "Bormikan" (Muqimiy) qo'shiqlari shular jumlasidandir. Bu ashalalar o'sha davrlarda xonanda va ijrochilar orasida keng yoyilgan bo'lib, barchalari sevib ijro etishardi. Ayniqsa, Sobir Abdulla qalamiga mansub, "Otga mindim", Hazrat Navoiyning "Muhtalomani" yoki "Naylayin" qo'shiqlari "Vatan o'g'lonlari" hamda "Frontga sovg'a" filmlari orqali o'z aksini topgan[8,24].

1936-1939 yillarda O'zbek davlat filarmoniyasida, 1940 yildan – 1950 yillargacha Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida faoliyat ko'rsatdi. O'zbekiston xalq hofizi Jo'raxon Sultonov 1958 yildan umrining oxirigacha O'zbekiston Radiosi "Maqom" ansamblida faoliyat ko'rsatdi.

Jo'raxon Sultonov xalq orasida "Katta ashula piri" nomini olgan, shuningdek, yallalar ustasi, askiyachi sifatida ham tanilgan. Shogirdi Ma'murjon Uzoqov bilan 25 yildan optiq, hamnafaslik qilib, o'ziga xos talqin yo'lini yaratgan. Repertuaridan "Ushshoq" va "Sodirxon Ushshog'i", "Dugoh Husayn", "Besh parda Suvora" va "Savti Suvora", "Hanuz", "Chor zarb", "Chaman yalla" kabi mumtoz ashula va yallalar, "Bog' aro", "Shafoat", "Xayrul bashar", "Otga mindim" va boshqa katta ashulalar o'rin olgan. U o'zbek xalq kuy va usullari asosida bir qancha ashulalar ijod qilgan. Jumladan, "Naylayin", "O'lmasin", "Keling, ey ahaboblar", "Bir qadah", "Ming qadam", "Bir kelsin", "Ey dilbari jononim", "Oh kim" kabi katta ashulalarni cholg'u jo'rligida ijro etib, yangi uslub yaratgan. Jo'raxon Sultonov ijrolari bugungi kunda O'zbekiston radiosi va San'atshunoslik instituti fonogrammalarida saqlanmoqda, bir necha gramplastinka, audiokasseta va kompakt disklarga yozilgan.

O'zbek milliy an'anaviy "Katta ashula" sanatining rivojlanishiga o'zining munosib xissasini qo'shgan sanat darg'alaridan biri "O'zbekiston xalq hofizi" Ma'murjon Uzoqovdir.

Ma'murjon Uzoqov (1904-1963) Marg'ilonning mashhur Mashxad mahallasida Bo'zchi Uzoqjon aka hamda Zebiniso aya xonadonida tavallud topgan. Uzoqjon aka san'atga juda ishqiboz

bo'lib, tez-tez qo'shni "Chorchinor" mahallasi guzaridagi choyxonada bo'ladigan san'atkorlarning yig'inlariga yosh o'g'li Ma'murjonni ham birga olib borardi. Shu tariqa uning yosh qalbida qo'shiqqa, san'atga mehr uyg'ona boshladi. Tezda ustozlar nazariga tushadi va Hasan qoridan dutor chalishni, Xudoybergan hofizdan qo'shiq aytishni o'rgana boshlaydi. 1926-yilga kelib Ma'murjon katta ashulalarning piri komillari bo'lgan Mamatbobo Sattorov, Boltaboy Rajabov, Hamroqul qori Qosimov singari taniqli san'atkorlar bilan bir safda turib xonish qiladigan, o'z qo'shiqlari bilan tinglovchilarni maftun etadigan bo'ldi[9,37].

1928-yilda Marg'ilonda O'zbek musiqali teatri tashkil etiladi va Jo'rajon Sultonov uni ishga taklif qiladi. Ma'murjon Uzoqovning keyingi o'ttiz yillik ijodiy faoliyati shu ulug' san'atkor bilan bog'lanib qoldi. Jo'raxon aka tanburda, Ma'murjon aka dutorda jo'rovozb bo'lib qo'shiq ayta boshlaydilar. Ular hamnafaslikda qo'shiq aytishib juda katta dovrug' qozonadilar.

1932-yilda Jo'raxon Sultonov bilan birga Toshkentga keladi va shu yerda yashay boshladi. Ustoz-shogirdlar 1937-yili Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek san'ati dekadasi taniqli sozandaxonandalar bilan birga qatnashib, "Sayil va kolxoz to'yi" badiiy kompozitsiyada muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Yosh hofiz o'sha paytdagi berilgan konsertlarda Erkaqori Karimov, Jo'raxon Sultonov singari hofizlar bilan "Bir kelib ketsin", "Kolxozchilar davroni" kabi katta ashulalarni hamovoz bo'lib ijro etib, o'z mahoratini yanada yuqori pog'onaga olib chiqdi.

1939-yili xalq hashariga aylangan katta Farg'ona kanali qurilishi san'atkorlarning ham o'zaro bellashuviga aylanib ketdi. Buni hujjatli kinolentalarda muhrlangan tasvirlarda Jo'raxon Sultonov bilan birga ijro etgan qator qo'shiqlarini ko'rish mumkin. Shu yili ko'p hofizlar qatori Ma'murjon Uzoqovga ham "O'zbekiston xalq hofizi" faxriy unvoni berildi. So'ngra Muqimiy teatriga taklif qilinadi va qo'shiq aytish bilan birga "Tohir va Zuhra"da jarchi, keyinchalik esa Tohir rolini ijro etdi. Ma'murjon Uzoqov o'z hamnafasi Jo'raxon Sultonov bilan urush yillarida qator qo'shiqlar yaratishdi, jumladan, "Otga mindim", "Muhtaloman- Naylayin" qo'shiqlari, "Vatan o'g'lonlari", "Frontga sovg'a" filmlari orqali o'z aksini topgan. Ma'murjon Uzoqovning urushdan keyingi ijodiy faoliyati o'zbek estradasi va Respublika radiosi bilan bog'lanib qoldi.

Mashhur sozanda va bastakor Muhammadjon Mirzayev Ma'murjon Uzoqovning hofizlik qirralarining yangicha shakllanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy hamkorlik natijasida "Surating", "Ko'zlaring", "Ey chehrasi tobonim", "Yo'lingda", "Yor istab", "Mustahzod", "Ayrulmasin", "Fig'onkim", "Sho'xi parivashga", "Namoyon qil", "Yakka bu Farg'onada", "Yolg'iz", "Nasihati", "Ey sabo", "Jonim mening", "Bir kelib ketsun", "Jonon bo'laman deb" singari qo'shiq va yallalar dunyoga keldi. Bu qo'shiqlarni hofiz jon dilidan kuylar, bu qo'shiqlar faqat uning dovudiy ovozi uchun yaratilganday edi. O'tkan asrning 50-60 yillar orasida Ma'murjon Uzoqov qo'shiqchilik olamida yangi sahifa ochdi va o'zbek qo'shiqchilik san'atining haqiqiy yulduziga aylandi. 1959 yilda Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasi jo'shib qo'shiq kuylagan Ma'murjon Uzoqovning dovudiy ovozidan ta'sirlangan Moskvalik taniqli musiqashunos olimlardan biri konsertdan keyin hofizning huzuriga kelib, "Ustozingiz kim?" deb so'raydi. "Ustozim Jo'raxon aka!" degan javobni eshitgan professor hayratlanib, "Italiya qo'shiqchilik maktabini bitirgan bo'lsangiz kerak, deb o'ylabman" degan[9,6]. Ma'murjon Uzoqov an'anaviy ashulachilik olamining osmonida chaqmoqdek yonib, momoqaldiroqdek gurullab o'tgan san'at ustozlaridan biri edi.

Ma'murjon Uzoqov chinakam xalq hofizi edi. Kamtarinlik, insoniy muomila, va'dasiga vafodorlik, axloqu odob, suhbatda dilkashlik, nozik ta'b va hushyorlik kabi fazilatlar bilan barchani lol qoldigan tom ma'nodagi katta ashula sohibi edi[2,175].

XULOSA

Bastakorlar tomonidan yaratilgan "Katta ashula"larda she'rning ma'no-mohiyatiga mos ravishda pardalar va musiqiy yo'l tanlanadi. Ijrochilar esa ba'zan birgalikda yoki yakka holda ijro etishlari ham mumkin. "Katta ashula"larning ichida shundaylari borki bu asarlarni ikki xonanda ijro etmasa bo'lmaydi, chunki ularning so'zlari va musiqiy matni bir ijrochi uchun qiyinchilik tug'diradi. Masalan: Jo'raxon Sultonov ijrosidagi "Oh kim", "Ko'kardi Chaman", "Ey sanam", "Yodimga tushdi", Ma'murjon Uzoqov ijrosidagi "Yolg'iz", "Dog'man", "Ko'p nozu itob etma", "Yor istab" va bu ashulalar ketidan ularga mos pardali ashulalarni musiqiy sozlar jo'rligida ham ijro etganlar. Ushbu an'anani – ustoz hofiz ashulachilarning yo'llarini hozirgi kunda ham davom ettirib kelayotgan iqtidorli, navqiron va yosh san'atkorlar borki, ular bilan barcha marg'ilonlik hamshaharlari haqli ravishda faxrlanadi.

Bugungi kunda "Katta ashula" janri eng noyob san'at turi sifatida "Yunesko" jamiyati tomonidan tan olingan. Bu janr ham "Maqom" singari san'atning murakkab turi ekanligi hamda

dunyoning boshqa hech qaysi davlatida yo'qligi sabab bo'ldi. "Katta ashula" yo'nalishining ijrosi qiyin va murakkab bo'lganligi uchun har qanday xonanda uni ijro eta olmaydi.

Bu yo'nalishda o'ziga xos maktab yaratgan Boltaboy Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, shuningdek, ularning izdoshlari Tavakkal Qodirov, Jalolxon Oxunov, Ibroximjon Isoqovlar o'zbek milliy qo'shiqchilik, jumladan, "Katta ashula" san'atini o'z davrida turli xil siyosiy tazyiqlardan saqlab qolishda o'z hissalarini qo'shganlar.

"Katta ashula" ijrochilari VII Xalqaro Musiqa Kongressi (Moskva, 1971), IV Osiyo Musiqali Minbari (Filippini, 1976), Yevropa folklor festivali (1985), AQSH musiqa folklor festivali (1987), "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali (Samarqand, 1997-2015), "Asrlar sadosi" An'anaviy madaniyat festivali (O'zbekiston, 2008-2013) kabi yirik anjumanlarda, Navro'z va Mustaqillik umumxalq bayramlarida o'z ijrochilik mahoratlari namoyish etmoqdalar. 1984-yildan boshlab respublika miqyosida muntazam ravishda katta ashula ijrochilari tanlovlari o'tkazilmoqda (2013-yili Toshkent viloyatda bo'lib o'tdi). Katta ashulani muhofaza qilish, saqlash va targ'ib etish bo'yicha tarjiba loyihasi ASSU YUNESKOning (Yaponiya) Oltin medali bilan taqdirlandi. Katta ashula 2009-yilda YUNESKOning "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" Reprezentativ ro'yxatiga kiritildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 2019. –Б. 102 (Mirziyoev Sh.M. The work of a people with a great intention will be great, their life will be bright and their future will be prosperous. -Tashkent: Uzbekistan. NMIU. 2019. –B. 102)
2. Маннопов С. Навобахш оҳанглар. –Тошкент: IJOD-PRESS нашриёти. 2018. –Б. 23, 175 (Mannopov S. Sweet tones. -Tashkent: IJOD-PRESS publishing house. 2018. –B. 23, 175)
3. Маннопов С. Ўзбек халқ мусиқа маданияти. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Янги аср авлоди. 2004. –Б. 13, 105 (Mannopov S. Uzbek folk music culture. Study guide. -Tashkent: Generation of the new century. 2004. -B. 13, 105)
4. Қамбаров А.А. Катта ашула соҳиби. Марғилон ҳақиқати газетаси. 24 март 1988 йил. № 36 (11305). –Б. 3 (Kambarov A.A. A great singer. Margilan Haqiqat newspaper. March 24, 1988. No. 36 (11305). –B. 3)
5. Терма кўшиқлар 1950 йилларда Мамадбобо Сатторов ижросида санъатшунослик студиясида магнит лентага ёзиб олинган. Инв. № 448-а (Terma songs were recorded on magnetic tape in the 1950s by Mamadbobo Sattorov in the art studio. Inv. No. 448-a)
6. Олимбоева К., Йўлдошбоева Т., Ахмедов М., Мирзаев Т. 2-китоб ўзбек ҳақ созандалари. Тузувчилар: . –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. –Б. 45-46 (Uzbek haq musicians. Compilers: Olimboeva K., Yoldoshboeva T., Akhmedov M., Mirzaev T. Book 2. -Tashkent: Literary and Art Publishing House named after Gafur Ghulam. 1974. –B. 45-46)
7. Маннопов С., Солиев Н. Жўрахон Султонов: Кўкарди чаман, гулўзорим қани? –Тошкент: IJOD- PRESS нашриёти. 2019. –Б. 52 (Mannopov S., Soliev N. Jorakhan Sultanov: It's so sweet, where are my flowers? -Tashkent: IJOD-PRESS publishing house. 2019. –B. 52)
8. Маннопов С. Қўшиқ олами юлдузлари. –Фарғона. 1996. Фарғона нашриёти. –Б. 24 (Mannopov S. Stars of the world of music. - Ferghana. 1996. Fergana publishing house. –B. 24)
9. Солиев Н., Кимсанбоев М. Маъмуржон Узоқов: Ошиқ эрмасман юзингга якка бу Фарғонада. –Тошкент: Наврўз нашриёти. 2015. –Б. 6, 37 (Soliev N., Kimsanboev M. Ma'murjon Uzokov: I will not kiss your face alone in Ferghana. -Tashkent: Navroz publishing house. 2015. –B. 6, 37)